

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO ‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

PARDAYEVA OZODA MAMAYUNUSOVNA

**INNOVATSION IQTIDIDIYOT SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Table of contents of the abstract for the doctoral dissertation (DSc) in economic
sciences**

Pardayeva Ozoda Mamayunusovna

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbikorlikni
rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish 5

Пардаева Озода Мамаюнусовна

Совершенствование методологии развития семейного предпринимательства в
сфере туризма в условиях инновационной экономики 37

Pardayeva Ozoda Mamayunusovna

Improving the methodology for developing family entrepreneurship in the tourism
sector in the context of an innovative economy 73

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 78

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO ‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

PARDAYEVA OZODA MAMAYUNUSOVNA

**INNOVATSION IQTIDIDIYOT SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSc/Iqt1316 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Ipak Yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb- sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Tuxliyev Nurislom

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mansurova Nargiza Shamsidinovna

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Aziza Muxammadrizayevna

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Ipak Yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 22/2025.27.12.1.01.01. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-oktabr kuni soat 13-30dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998 80) 725-89-07; faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: science_dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (55-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998 80) 725-89-07; faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: science_dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 28-sentabr kuni tarqatildi.
(2026 yil 28-sentabrdagi 13 - raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududlarning turistik jozibadorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, "2025-yilda xalqaro turistlar soni qariyb 1,52 milliard kishiga yetib, xalqaro turizmdan olingan jami eksport daromadlari 2,2 trillion AQSh dollarini tashkil etgan"¹. Bu borada raqamli platformalar, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, elektron to'lovlar, innovatsion marketing texnologiyalari va integratsiyalashgan turistik xizmatlardan samarali foydalanish oilaviy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, ularni turizm qiymat zanjiriga samarali integratsiya qilish hamda yangi bozor segmentlariga kirib borish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois, innovatsion iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli baholash, raqamli platformalar va innovatsion integratsiya tamoyillariga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda oilaviy turizm biznesini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish, turistik xizmatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi va innovatsion faolligini oshirish hamda ularni zamonaviy turizm bozoriga samarali integratsiyalash masalalari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslarini takomillashtirish, boshqaruvning innovatsion instrumentlaridan samarali foydalanish, raqamli platformalar, sun'iy intellekt texnologiyalari va katta ma'lumotlar tahlilini oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etish, turistik talabning yangi segmentlarini aniqlash va ularga mos innovatsion xizmat turlarini shakllantirish, oilaviy tadbirkorlikning turistik destinatsiyalar, klasterlar hamda qiymat yaratish zanjirlariga integratsiyalashuv mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlarni diversifikatsiya qilish va raqamli marketing vositalari orqali bozorga olib chiqish, investitsion va innovatsion salohiyatni baholash usullarini ishlab chiqish, shuningdek, turizmning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan oilaviy tadbirkorlik shakllari va modellarini rivojlantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda hududlarning turistik salohiyatidan oqilona foydalanishga qaratilgan

¹ UN-Tourism. Jahon turizm barometri. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

maqsadli dasturlar va kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. “Xonadonlarga mablag‘ kiritsak, zarur uskunalar berib, aql bilan ishlashni o‘rgatsak, odamlar o‘zini o‘zi boqadi. Bir yildan keyin sarflagan pulimiz ikki barobar bo‘lib qaytadi. Iqtisodiy mexanizm mana shunday bo‘lishi kerak”². “Biz turistlar uchun sharoit yaratishni istaymiz, lekin buning asosini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Master-rejaga muvofiq, ta’lim-innovatsiya, turizm va savdo, madaniy meros, biznes hamda IT xizmatlarini qamrab olgan “rivojlanish koridorlari” shakllantirish lozim”³. Ushbu vazifalarning bajarilishi turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-uslubiy va metodologik asoslarini takomillashtirish, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy, institutsional, innovatsion va hududiy omillarni tizimli baholash, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining turistik destinatsiyalar, klasterlar va qiymat yaratish zanjirlariga integratsiyalashuv mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli platformalar, sun’iy intellekt texnologiyalari va katta ma’lumotlar tahlili asosida turistik talabning yangi segmentlarini aniqlash, oilaviy mehmon uylari, gastronomik, agro-, eko-, etno- va kreativ turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion boshqaruv instrumentlaridan samarali foydalanish, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining investitsion va innovatsion faolligini oshirish, davlat tomonidan moliyaviy, infratuzilmaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, integral baholash va ekonometrik modellar asosida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli parametrlarini prognozlash bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 30-yanvardagi PF-15-son “O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalarini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son, 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 30-

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-maydagi “Har bir oila tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi kerak. <https://president.uz/oz/lists/view/1734>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi “Xizmat sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi”/ <https://president.uz/oz/lists/view/8875>

apreldagi PQ-161-son “Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁵. Jahonda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Griffith Institute for Tourism (Griffith University, Avstraliya)”, Centre for Hospitality & Tourism, University of Surrey (Buyuk Britaniya), School of Hotel and Tourism Management (The Hong Kong Polytechnic University, PolyU, Gonnkong), Center for Hospitality Research – Cornell University (Nyu-York, AQSh), UHERO University of Hawai‘i Economic Research Organization (Gavayi, AQSh), UN TOURISM (World Tourism Organization) va WTTC (World Travel & Tourism Council), University of Exeter – Centre for Rural Policy Research (Buyuk Britaniya), Edinburgh Napier University – Tourism Research Centre, Leeds Beckett va Bournemouth Research Groups (Buyuk Britaniya), IIT va mintaqaviy markazlar), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis institutlari (O‘zbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbikorlikni rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar jarayonida qo‘yidagi ilmiy natijalar olingan: turizmdagi malaka va destinatsiya moslashuvchanligi bog‘lanishi ko‘rsatilgan, mintaqaviy rivojlanish va voqealar orqali diversifikatsiyaga qaratilgan siyosat tavsiyalari berilgan (School of Hospitality & Tourism Management – University of Surrey (Buyuk Britaniya), mehmonxonalar uchun barqarorlik indeksi va boshqa baholash vositalari ishlab chiqilgan, xizmatlar diversifikatsiyasiga amaliy yechimlar taklif qilingan (Center for Hospitality Research – Cornell University (AQSh)), makroiqtisodiy tahlillarda turizmga bir tomonlama bog‘liqlikning xatarlari ko‘rsatilgan va diversifikatsiya siyosatlari tavsiya qilingan (UHERO – University of Hawai‘i Economic Research Organization (AQSh)), destinatsiya hayot sikli nazariyasi va meros turizmi orqali ijtimoiy-

⁴ <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

⁵ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi University of Melbourne (Avstraliya), The University of Calgary (Kanada), World Tourism Education and Research Centre, School of Leisure and Food Management Sheffield Hallam University (Buyuk Britaniya), International Centre for Tourism and Hospitality Research, Bournemouth University (Buyuk Britaniya), Queensland University of Technology (Avstraliya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Bocconi University (Italiya), Universita di Trento (Italiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, «Ipak yo‘li» turizm xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

iqtisodiy samaralar o'rganilgan (University of "Otago – Turizm va Geografiya (Yangi Zelandiya)), qishloq hududlarda turizm diversifikatsiyasi orqali jamoa manfaatlari va barqaror rivojlanish ta'minlanishi ko'rsatilgan (University of Exeter" – Centre for Rural Policy Research (Buyuk Britaniya)), shahar strategiyalari va voqealar orqali diversifikatsiya mahalliy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi (Edinburgh Napier University-Tourism Research Centre (Buyuk Britaniya)), voqea va regional strategiyalar orqali diversifikatsiya imkoniyatlari asoslangan (Leeds Beckett University / Bournemouth University – Tourism & Hospitality Research Groups "(Buyuk Britaniya)), turizm oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan ("Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, O'zbekiston Respublikasi)".

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, jahonda globallashuv sharoitida turizm xizmatlar diversifikatsiyasining marketing strategiyasini takomillashtirish; qishloq hududlarda turizm diversifikatsiyasi orqali jamoa manfaatlari va barqaror rivojlanishni ta'minlash; destinatsiyalarda ko'p mahsulotli diversifikatsiyaga o'tish yo'llarini amalga oshirish"; turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishning innovatsion strategiyalardan samarali foydalanish, raqamli transformatsiyalashuv sharoitida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish yo'nalishlari va hokazo.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda tadqiqotning metodologik yondashuvlari, ishlab chiqarish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasining nazariy asoslari xorijlik iqtisodchi mutaxassislardan, D.B.Veaver, C.M.Hall, Djinbo Szyan, Shenchao Li, Sara Dolnicar, Jafar Jafari, Pauline Sheldon, Geoffrey Wall, O.V.Pirogova, A.Yu.Pirogova, Ye.M.Maksarova⁶ ilmiy asarlarida o'rganilgan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, B.X.To'raev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, A.A.Qodirov, S.Sh.Xalilov⁷ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

⁶ D.B. Weaver *Tourism Theory and the discipline of tourism* // *Journal of Travel Research*. 2022. T. 62. № 1. C. 259–265., C.M. Hall, Gossling S., Scott D. *The Routledge Handbook of Tourism and Sustainability*. Routledge, 2015, Jinbo Sian, Shenchao Li, va Yi Guo "Barqaror turizm siyosati tadqiqoti sharhi". "Barqarorlik" (Sustainability) jurnali, 2019-yil. 11(11), <https://www.mdpi.com/2071-1050/11/11/3187>; Dolnicar S. Can eco-certification standardize sustainable tourism? // *Journal of Sustainable Tourism*. 2018. Vol. 26, №10. www.researchgate.net/publication/283849335_Does_eco_certification_sell_tourism_services_Evidence; Jafari J., Ritchie J. R. B. Toward a framework for tourism education // *Annals of Tourism Research*. 1981. T. 8. № 1. C. 13–34, Sheldon P.J. Conference Report: Sustainability and Mass Destinations // *Annals of Tourism Research*. 2005. Vol. 32, No. 3. Pp. 811-813. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.annals.2004.10.007>; Wall G. "Tourist Attractions: Points, Lines, and Areas" // *Annals of Tourism Research*. 1997. Vol. 24, No. 1. Pp. 240-243. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0160-7383\(96\)00039-4](https://doi.org/10.1016/S0160-7383(96)00039-4); Пирогова О.В. Пирогова А.Ю. Роль устойчивого туризма в мире // *Межд. жур. приклад. и фундамент.-х исследований*. – 2017, №7-2, с.305-309. <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=11743>; Максарова Е.М. Основные направления реализации принципов устойчивого развития в туризме // *ж. Экономика, право*, 2008, с.346. <https://e.twirpx.link/file/482976/>

⁷ Абдурахмонов К.Х. *Менеджмент туризма* // учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. *Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития*. – O'zbekiston milliy ensiklopedias, 2006., Tuxliev I.S., Qudratov G'X., Pardaev M.Q. *Turizmni rejalashtirish* // *Darslik*. -T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshtayev A.A. *Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi*. // T:

Ushbu mualliflarning turizm va mehmondo'stlik industriasini, turizmning ayrim turlarini rivojlantirishni, shuningdek, iqtisodiyot va turizmni barqaror rivojlantirish muammolarini hal etishga qo'shgan nazariy va amaliy hissalari shubhasizdir. Biroq, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish ning nazariy-metodologik masalalari yetarli darajada yoritilmaganligi sababli, ushbu masalalar bilan bog'liq muammolarni hal etish hamda ularni nazariy-metodologik jihatdan asoslash zarurati, dissertatsiya tadqiqotining maqsad va vazifalarini taqozo etadi.

Bu holat, o'z navbatida, innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan mavzuni tadqiq etishda asos bo'ldi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish yetarli darajada yoritilmagan, xususan, turizm resurslaridan samarali foydalanish tizimini o'rganish, turizm sohasida rivojlantirish tizimini modellashtirish hamda turistik resurslar salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish zarurati mazkur mavzuning alohida dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotining maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm va oilaviy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun va mohiyatiga ilmiy-nazariy yondoshuvlarni tadqiq etish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganish;

Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b., Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. – 260 b., Typaev B.X. Организационно-экономические механизмы регионального туризма // Ташкент: Фан, 2009. Т. 1. № 1. С. 153., Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreasiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.: 2021. 68 b., Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil 22-iyun., Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // Monografiya. T.. IFMR nashriyoti. 2017. – 220 bet., Amonboyev M., Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // o'quv qo'llanma – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 96 b. – ISBN 978-9943-7661-7-4.

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari o'rganish;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tadqiq etish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish usullarini takomillashtirish;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish holati va institutsional jihatlarini ilmiy asoslash;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlilini amalga oshirish;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali foydalanishga qaratilgan turlarini tashkil etish borasida tavsiyalar ishlab chiqish;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish va prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalangan mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida "raqamli platformalar" va "innovatsion integratsiya" tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning $E > 1$ texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil aplication xavfsiz), $E = 1$ texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va aplication xavfga yaqin), $E < 1$ texnologiyalar samarasiz (on-line bronlash va mobil aplication xavfli) ko'rsatkich koeffitsiyentining integral usuli asosida "Omonqo'tan" qishlog'i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etishda "Digital tourism destination" modelidan foydalanish bo'yicha takliflar dalillangan;

turizm sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimini joriy etish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va samarali rivojlantirishni asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi, jozibadorligi targib qiluvchi "Smart tourism family entrepreneurship system" modeli asosida investorlar tomonidan real daromad va xarajat rejimini kuzatish imkoniyati, turpaketlarning

reklamasini faollashtiradigan, $R \in [-1; +1]$ oralig'idagi integral risk-reyting indeksi bo'yicha turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integratsiyalashgan raqamli resurs "Investment in family entrepreneurship" platformasidan foydalanish bo'yicha takliflar asoslangan;

xorij davlatlaridan yanada ko'proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish, mamlakatning turistlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish asosida turizm sohasi subyektlari (turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari)ning turizm mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro nufuzli turistik va marketing platformalar bilan integratsiyalash uchun "Family Entrepreneurship in MICE Tourism" modelidan foydalanish afzaliklar bo'yicha takliflar asoslangan;

mamlakatimizda turoperatorlar tomonidan norezidentlarga ko'rsatiladigan turizm xizmatlarini, ularning amalga oshirilish joyidan qat'i nazar, xizmatlar eksporti deb e'tirof etish hamda ularga qo'shilgan qiymat solig'ining "nol" stavkasini qo'llashni joriy etish asosida "Omonqo'ton", "Qoratepa", "Yuqori Tersak", "O'rta Tersak", "Tersak" qishloqlaridagi oilaviy tadbirkorlik obyektlarida (turistik majmualari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari) turistik keytering xizmatlarini joriy etishda "Family entrepreneurship in the tourism" usuli bo'yicha takliflar asoslangan;

hududlarda oilaviy tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish omillarining ta'sirini hisobga olib, respublikada turizm sohasini samarali rivojlantirish maqsadida ekonometrik ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish zaruratining ilmiy va amaliy jihatlari, turizm, oila va tadbirkorlikning innovatsion iqtisodiyot tizimiga asoslangan "oilaviy tadbirkorlik" kategoriyasining takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati modeli, o'ziga xos xususiyatlari, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tizimining tamoyillari, vositalari va tarkibiy elementlar modeli ishlab chiqilgan;

raqamli iqtisodiyot sharoitida turistik mahsulotlarini, xizmatlar va tovarlarni, axborot va raqamli xizmatlarni yaratish hamda iste'mol qilish jarayonidagi barcha tarkibiy elementlarni o'z ichiga oluvchi ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish modelining tarkibiy tuzilishi va uning tashkiliy bloklari bo'yicha usular ishlab chiqilgan;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalangan mexanizmlarini imkoniyatlaridan kelib chiqib "raqamli platformalar" va "innovatsion integratsiya" tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning $E > 1$, $E = 1$, $E < 1$ → texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil aplication xavfsiz), $E = 1$ → texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va aplication xavfga yaqin), $E < 1$ → (on-line bronlash va mobil aplication xavfli) texnologiyalar samarasiz ko'rsatkich koeffitsiyentining integral usuli bo'yicha takliflar asoslangan;

turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish dastur maqsadidan kelib chiqib “Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “O‘rta Tersak”, “Tersak” qishloqlaridagi oilaviy tadbirkorlik obyektlarida malakali portelarni turxizmat ko‘r satuvchi majmualari, oilaviy umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yaratish asosida yangi turistik keytiring xizmatlari joriy etish orqali turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar asoslab berilgan;

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali rivojlantirishni asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi, jozibadorligi targib qiluvchi “Smart tourism family entrepreneurship system” innovatsion modeli va investorlar tomonidan real daromad va xarajat rejimini kuzatish imkoniyati, turpaketlarning reklamasini faollashtiradigan, risk nuqlarini $X \dots -1 < 0 < +1$ gacha kamaytiadigan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsyalshda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma’lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida turizm tutgan o‘rmini belgilash hamda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonni metodologik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish jarayonining uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalangan mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida “raqamli platformalar” va “innovatsion integratsiya” tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning $E > 1$ texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil aplication xavfsiz), $E = 1$ texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va aplication xavfga yaqin), $E < 1$ texnologiyalar samarasiz (on-line bronlash va mobil aplication xavfli) ko‘rsatkich koeffitsiyentining integral usuli asosida “Omonqo‘tan” qishlog‘i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etishda “Digital tourism destination” modelidan foydalanish bo‘yicha dalillangan takliflar 2026-yil 30-apreldagi PQ–161-son “2026–2027-yillarda hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va turistik salohiyatni oshirish” bo‘yicha “Chora-tadbirlar dasturi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ning 2026-yil 22-iyundagi 02-17/6387-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi orqali turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida hududlarda oilaviy tadbirkorlikka asoslangan turistik korxonalarining bozor ulushini 25% ga kengayishiga hamda mijozlar qoniqishini 16 %ga osirishga zamin yaratgan;

turizm sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali rivojlantirishni asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi, jozibadorligi targib qiluvchi “Smart tourism family entrepreneurship system” modeli asosida investorlar tomonidan real daromad va xarajat rejimini kuzatish imkoniyati, turpaketlarning reklamasini faollashtiradigan, $R \in [-1; +1]$ oralig‘idagi integral risk-reyting indeksi bo‘yicha turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integratsiyalashgan raqamli resurs “Investment in family entrepreneurship” platformasidan foydalanish bo‘yicha asoslangan takliflar 2026-yil 6-iyundagi 8-mh-son “Turizm sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” gi “Nizomi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ning 2026-yil 22-iyundagi 02-17/6387-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish asosida mamlakatimizni qo‘shimcha ravishda turistlar oqimini 1,5 baravarga oshirishga imkoniyatini yaratgan;

xorij davlatlaridan yanada ko‘proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish, mamlakatning turistlar oqimini yanada ko‘paytirish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish asosida turizm sohasi subyektlari (turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari)ning turizm mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro nufuzli turistik va marketing platformalar bilan integratsiyalash uchun “Family Entrepreneurship in MICE Tourism” modelidan foydalanishning afzalliklari bo‘yicha takliflar 2026-yil 16-martdagi 105-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ning 2026-yil 22-iyundagi 02-17/6387-son

ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish asosida turizm sektorining umumiy YaIMga nisbiy ulushi 3,7 % gacha o'sishiga imkon bergan;

mamlakatimizda turoperatorlar tomonidan norezidentlarga ko'rsatiladigan turizm xizmatlarini, ularning amalga oshirilish joyidan qat'i nazar, xizmatlar eksporti deb e'tirof etish hamda ularga qo'shilgan qiymat solig'ining "nol" stavkasini qo'llashni joriy etish asosida "Omonqo'ton", "Qoratepa", "Yuqori Tersak", "O'rta Tersak", "Tersak" qishloqlaridagi oilaviy tadbirkorlik obyektlarida (turistik majmualari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari) turistik keytering xizmatlarini joriy etishda "Family entrepreneurship in the tourism" usuli bo'yicha asoslangan takliflar 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son "2026-2027-yillarda hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va turistik salohiyatni oshirish" bo'yicha "Chora-tadbirlar dasturi"ga kiritilgan. (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ning 2026-yil 22-iyundagi 02-17/6387-son ma'lumotnomasi). Natijada 2026 yilda mamlakatimizda turizm xizmatlari eksportini 1,2 baravarga oshirish imkoniyatlari dalillangan;

hududlarda oilaviy tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish omillarining ta'sirini hisobga olib, respublikada turizm sohasini samarali rivojlantirish maqsadida ekonometrik ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan, hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturlariga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ning 2026-yil 22-iyundagi 02-17/6387-son ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz natijalari turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni 2030-yilga borib 29630 tani tashkil etishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 2 ta, xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta monografiya nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 202 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy yo‘nalishlari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm va oilaviy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun va mohiyatiga ilmiy-nazariy yondoshuvlar, innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.


Turizm, uning o‘tmishi, bugungi holati, kelajakda rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq barcha yo‘nalishdagi, jumladan biz tanlagan mavzudagi, ilmiy-nazariy izlanishlar, avvalambor, “turizm” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarida aynan “turizm” tushunchasi boshqa barcha kategoriya va tushunchalarga nisbatan birinchi darajali va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, “turizm” tushunchasining tub mohiyatini to‘la tushunib yetmasdan, unga atroflicha va to‘liq ta’rif bermasdan turib, turistik xizmatlar hajmini baholab bo‘lmaydi. Shuningdek, turistik xizmatlar bozorining holatini tadqiq etish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, rivojlanish istiqbollarini prognozlashtirish “turizm” tushunchasining to‘g‘ri talqin etilishiga bog‘liq. Turizmning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, oila, tadbirkorlik, aholi bandligi, daromadlari va boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash turizm sohasi to‘g‘risida aniq tasavvur va nazariy bilimlarning bo‘lishini taqozo etadi.

Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida “turizm”, “oila”, “tadbirkorlik” tushunchalarining mohiyatini ochishga alohida e’tibor qaratildi. Nazariy izlanishlar bugungi kunda “turizm” tushunchasining mohiyatini ochib berishga, unga mazmundor ta’rif berishga, turizmni turli belgilar asosida turlarga tasniflashga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar borligini ko‘rsatdi. Bizning ilmiy qarashlarimizga ko‘ra **turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik deganda, o‘z mulkiga ega bo‘lgan oilaviy tadbirkorlar turizm sohasini rivojlantirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojini qondirish hamda ma’lum darajada daromad, foyda olish maqsadida turistik xizmat ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish va olingan foydani oila doirasida o‘zlashtirishga asoslangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.**

Shunday ekan, turizm, oila va tadbirkorlikning raqamli iqtisodiyot tizimi faoliyatlari bilan tarkibiy qismlarining birlashuvi hamda **“turizm + oila + tadbirkorlik + innovatsion iqtisodiyot ”** kategoriyalarini iqtisodiyotning umumiy va xususiy qonunlariga mos kelish tamoyiliga asoslanadi. Iqtisodiy tamoyillariga mos kelish qonuni mohiyatiga ko‘ra, yangi faoliyat faoliyat turini natijasini keltirib chiqaradi ($4+1=5$). Ushbu holatga yangicha metodologiya nuqtai-nazaridan yondoshiladigan bo‘lsa Venn diagrammasi ishtirokidagi quyidagi modelni shakllantiradi (1-rasm).

Nazariy jihatdan boshqacha aytganda, tadqiqotlarimizning natijalari yuqorida nomlari yuqorida keltirilgan iqtisodiy kategoriya atributlarining alohida faoliyat natijasidan ularning birgalikda, hamjihatlikda ishlashi samarasi yuqori bo‘ladi. Bu jarayonda yaxlit tizimning alohida qismlari ham ahamiyatga ega. Sababi, turizm sohasida oila o‘z mulkidan unumli foydalanishi orqali ishlab chiqarish yoki

tadbirkorlikka yo‘l ochishi, davlat ishtirokida kafolatli istiqbolga erishishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish xususiyatlari va usullarini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi .



1-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati modelining tuzilishi⁸

Tahlillar natijasida UN Tourism oilaviy tadbirkorlik uchun alohida majburiy xalqaro standartlar ishlab chiqmagan bo‘lsa-da, uning barqaror turizm, qishloq turizmi, mahalliy hamjamiyatlar ishtiroki va mikro-kichik biznesni (MSME) rivojlantirishga oid hujjatlarida oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi qator talab va tamoyillar belgilanganligini aniqladik . Bular quyidagilar⁹

Birinchi tamoyil: mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish – UN Tourism turizm rivojlanishidan olinadigan iqtisodiy foyda mahalliy aholiga yetib borishi kerakligini ta’kidlaydi. Oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik, milliy oshxona va ekskursiya xizmatlari orqali mahalliy oilalar turizm qiymat zanjirining faol ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Ikkinchi tamoyil: kichik va oilaviy bizneslarni qo‘llab-quvvatlash – tashkilot turizmida mikro, kichik va o‘rta korxonalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko‘radi. Bunda quyigilar nazarad tutiladi:

- imtiyozli kreditlar;
- mikromoliyalashtirish;
- biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishni soddalashtirish;
- marketing va raqamlashtirish ko‘nikmalarini oshirish

kabi choralar tavsiya etiladi.

Uchinchi tamoyil: Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda barqaror va mas’uliyatli turizm tamoyillari

- ekologik muhofaza talablariga rioya qilishi;
- mahalliy madaniyat va urf-odatlarini asrashi;

⁸ Muallif ilmiy-tadqiqotlari asosida tayyorlandi

⁹ <https://sdgs.un.org/topics/sustainable-tourism?utm>

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi;
- chiqindilarni kamaytirishi kerak.

To‘rtinchi tamoyil: Oilaviy tadbirkorlik fonida qishloq turizmini rivojlantirish UN Tourism qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududiy rivojlanishni ta‘minlashning muhim vositasi deb hisoblaydi. Qishloq turizmi:

- agro-turizm oilaviy tadbirkorlik;
- ekoturizm oilaviy tadbirkorlik;
- etnoturizm oilaviy tadbirkorlik;
- gastronomik turizm yo‘nalishlari orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirilishi tavsiya etiladi¹⁰.

Beshinchi tamoyil: Ayollar va yoshlar oilaviy tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash. UN Tourism hujjatlarida turizm sohasida quyidagilar muhim vazifalar sifatida ko‘rsatilgan:

- oilaviy tadbirkorlik natijasida gender tengligini ta‘minlash;
- oilaviy tadbirkorlik natijasida ayollar bandligini oshirish;
- oilaviy tadbirkorlik natijasida yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish;
- oilaviy tadbirkorlik natijasida kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish muhim vazifalar sifatida ko‘rsatilgan.

Oltinchi tamoyil: Oilaviy turizm korxonalari raqamlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirish:


- onlayn bronlash tizimlari;
- elektron to‘lovlar;
- ijtimoiy tarmoqlar marketingi;
- raqamli platformalar orqali xalqaro bozorlarga chiqishi kerakligi tavsiya etiladi. Bu ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Yettinchi tamoyil: Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida madaniy merosni saqlash. Oilaviy bizneslar milliy an‘analar, hunarmandchilik, tarixiy obidalar va mahalliy turmush tarzini turistlarga namoyish etish orqali madaniy merosni asrashga hissa qo‘shishi kerak¹¹.

Turizm sohasi mamlakatlarda aholi bandligini qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarning tezda qaytishini ta‘minlash, soliq tushumlarini oshirish, xorijiy valyuta oqimini ta‘minlash va daromad manbalarini kengaytirishda muhim vosita sifatida e‘tirof etilmoqda. Shuningdek, turizm mahalliy, mintaqaviy va milliy darajada iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga, turizm bilan bog‘liq tarmoqlararo aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari turizm sohasi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tarkibiy qismlarini yagona tizim sifatida tadqiq qilish, turistik infratuzilma, tabiiy va madaniy meros obyektlari, turizm siyosati hamda mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu holatda ilmiy va amaliy yondashuvlar sintez qilinib, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning strategiyasining tizimini shakllantirishga yo‘naltiriladi (2-rasm).

¹⁰ https://tourism-villages.unwto.org/wp-content/uploads/2025/02/Guidelines-for-Applications_2025_EN.pdf?utm_s

¹¹ <https://unctad.org/publication/guiding-principles-sustainable-investment-tourism?>



2-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tizimining tamoyillari, vositalari va tarkibiy elementlari¹²

Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish majmuasi, ya'ni uni rivojlantirish tizimi, o'z ichiga keng qamrovli tashkilotlarni qamrab oladi. Ularning har biri turizmni rivojlanishiga va oilaviy turizm faoliyati barqarorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish usullarini takomillashtirish hamda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish holati va institutsional jihatlari tadqiq qilingan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) tomonidan chop etilgan **“Making Tourism More Sustainable A Guide for Policy Makers”** hisoboti¹³ hamda xalqaro standartlar, akademik tadqiqotlar va ilg'or tajribalar asosida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirish tamoyillari maqsadga muvofiq deb topdik. Bunda

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ UNEP and UNWTO. (2005). Making Tourism More Sustainable – A Guide for Policy Makers, pp.11-12.

bugungi global turizm xizmatlari sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini mustahkamlash, sohada faoliyat olib borayotgan turizm sanoati ishtirokchilarining rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda mamlakatda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini ta'minlashda turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillarini "raqamli platformalar" va "innovatsion integratsiya" tamoyillarini qo'shish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotning muhim strategik sohasi sifatida rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish, shuningdek, Konsepsiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga eshinishda ko'p jihatdan tarmoq iqtisodiyotida davlatning faol ishtirokiga ehtiyoj seziladi. Turizmni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish davlatning bevosita va faol ishtirokisiz, uning puxta o'ylangan tezkor chora-tadbirlarisiz, yuqori samara beruvchi siyosatisiz amalga oshmaydi.

Tadqiqot ishida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalangan mexanizmlarini imkoniyatlaridan kelib chiqib "raqamli platformalar" va "innovatsion integratsiya" tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning $E > 1 \rightarrow$ texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil application xavfsiz), $E = 1 \rightarrow$ texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va application xavfga yaqin), $E < 1 \rightarrow$ texnologiyalar samarasiz (on-line bronlash va mobil application xavfli) ko'rsatkich koeffitsiyentining integral usuli bo'yicha takliflar asoslangan va "Omonqo'tan" qishlog'i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etish bo'yicha model ishlab chiqildi hamda oilaviy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga uslubiy yondoshuvlarning institutsional jihatlarini takomillashtirilgan.

Tadqiqot jarayonida mazkur ilmiy-uslubiy tavsiyalar Samarqand viloyatida faoliyat yurituvchi "Tersak shasharchalari" turistik oilaviy tadbirkorlik korxonasi, "Samarqand Kasaba", turistik korxonalari hamda "Bo'ston Travel" kabi oilaviy tadbirkorlik turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatiga joriy qilindi. Uslubiy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilarining faoliyatida quyidagi ijobiy natijalarga erishildi. Tadqiqot davomida "Tersak shasharchalari" turistik oilaviy tadbirkorlik korxonasi, "Samarqand Kasaba", turistik korxonalari hamda "Bo'ston Travel" kabi oilaviy tadbirkorlik turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini 2025-yil davomidagi raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliyoti tahlil etildi $E > 1 \rightarrow$ texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil application xavfsiz), $E = 1 \rightarrow$ texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va application xavfga yaqin), $E < 1 \rightarrow$ texnologiyalar samarasiz (on-line bronlash va mobil application xavfli) ko'rsatkich koeffitsiyentining integral usuli aniqlandi.

Tadqiqot natijalari turizmning hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va mahalliy aholining unga nisbatan munosabatini baholashda muhim ilmiy

asoslarni yaratib berdi¹⁴. **Omonqo‘tan” qishlog‘i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etish** misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turizmning dastlabki bosqichida mahalliy aholi uni ijobiy qabul qilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan turistlar oqimi ortishi turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, atrof-muhit va tabiiy resurslarga ortiqcha bosim yuzaga kelganda kuchayadi. Shu munosabat bilan, tadqiqotda **“Omonqo‘tan” qishlog‘i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etish** bo‘yicha model ishlab chiqildi va asoslandi (3-rasm).



3-rasm. “Omonqo‘tan” qishlog‘i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etish modeli¹⁵

Bu modelga asoslangan holda, turizmni rivojlantirish uchun integratsiyalangan yondashuv taklif etilmoqda, u turizm infratuzilmasini yaxshilash, turistlar uchun ekologik va madaniy ta'lim dasturlarini tashkil etish, mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash hamda turizmdan keladigan iqtisodiy foydani adolatli taqsimlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu modelni amalga oshirishda quyidagi mexanizmlar taklif qilindi:

turistlar va mahalliy aholining ehtiyojlarini o'rganish orqali infrastruktura loyihalarini ishlab chiqish (investitsiya jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik

¹⁴ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23056839>

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tizimini yo'lga qo'yish, yo'llar, mehmonxonalar, va transport tizimini takomillashtirish);

mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash va ularni qo'llab-quvvatlash (turizmdan tushadigan daromadlarni adolatli taqsimlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish, mahalliy aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va grantlar ajratish, shuningdek, jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish uchun maxsus platforma yaratish);

mahalliy qoidalar va tabiatni muhofaza qilish tartiblarini joriy qilish (turistik oqimlarni joylashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash uchun maxsus hududlarni tashkil qilish).

Bizning tadqiqot oilaviy tadbirkorlik turizm tizimiga ixtisoslashgan joy hamda kichik kempinglarga asoslangan bo'lganligi sababli xar bir tabiiy obyektlar yon atrofidagi jozibadorligi yuqori bo'lgan hududlarda kempinglar yaratishimiz orqali va bu kempingda turislarni dam olishga undash asosida ularning hududda qolish kunlarini oshirishimiz mumkin. Oilaviy tadbirkorlik kichik komplekslarning miqdorining ko'pligi va bu komplekslarning bir hududda joylashganligi, ulardagi kishilarning joylashtirish sig'imini e'tiborga olib turistlarning sonini ko'paytirish evaziga makro komplekslarga aylantirishimiz mumkin.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri bo'lib, yildan-yilga faol rivojlanishda davom etmoqda. Turizm bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 30 yilda turistlar soni 4 barobar, turizm industriyasidan tushgan daromad esa shu vaqt ichida 25 barobar oshgan. Ayni paytda dunyodagi 40 ta mamlakatda turizm sohasi byudjetning asosiy manbasi hisoblanadi va yana 70 ta mamlakat byudjetining uchdan bir qismini tashkil qilmoqda.

1-jadval


2024-yilning turistik sayohatlar sonining maqsadlar bo'yicha taqsimlanishi¹⁶

Turistik sayohatlarning maqsadlari	O'zbekistonga kelgan xorijiy sayohatchilarning maqsadlari		O'zbekistondan chiqib ketgan sayohatchilarning maqsadlari	
	Jami	Jamiga nisbatan % da	Jami	Jamiga nisbatan % da
Turistik yo'nalishlar	7 957,2	100	6 183,8	100
Biznes	338,5	4,3	13,7	0,2
Ta'lim	25,1	0,3	35,9	0,6
Dam olish va rekreatsiya	1 184,4	14,9	949,4	15,3
Sog'inish-qumsash	6 105,3	76,7	5 123,9	82,9
Tibbiy	104,9	1,3	60,9	1,0
Savdo	199,0	2,5	-	-

1-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, mamlakatimizga 2024-yilda tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimida asosiy ulushni (76,7%) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan turistlar tashkil etgan. Dam olish va rekreatsiya maqsadida keluvchilar ulushi 2024-yilda 14,9 % ni tashkil etgan. Bu O'zbekistonning turizm

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining 2024-yilning natijalari asosida.

industriyasidagi mavqe'ini mustahkamlash va rekreatsion infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Biznes va tibbiy turizm koeffitsientlari nisbatan past bo'lib, ular mos ravishda 4,3% va 1,3% ga tengdir. 2024-yilda O'zbekiston fuqarolarining xorijga chiqish dinamikasini tahlil qilish natijasida ham shunga o'xshash dinamika kuzatildi. Turistlarning 83,3 %i qarindoshlarni ziyorat qilish maqsadida safarga chiqishgan. Dam olish maqsadida safar qiluvchilarning ulushi 15,6% ni tashkil qilgan. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro turizmning tiklanish jarayoni pandemiyadan keyingi cheklovlarning bekor qilinishi, iqtisodiy omillar va geosiyosiy vaziyatning barqarorligiga bevosita bog'liq. Osiyo va Tinch okeani mintaqasida tiklanish eng yuqori sur'atda kechgan bo'lsa, Yevropa va Amerika mintaqalari nisbatan izchil va barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etdi. Bu esa global turizm sektorining tiklanishida hududiy xususiyatlarning muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Shunday qilib, xalqaro turizmni tiklash bo'yicha strategik qarorlarni ishlab chiqishda hududiy tafovutlarni hisobga olish va moslashuvchan yondashuvlarni shakllantirish zaruriyati dolzarb bo'lib qolmoqda. Yuqorida keltirilgan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tizimining manfaatdor tomonlari tarkibini va ularning har bir alohida elementlarini ko'ribchiqamiz (4-rasm).




4-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tizimining asosiy institutsional ishtirokchilari¹⁷

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro tashkilotlar – turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular turizm sohasi rivojlanishining barqarorligini ta’minlash, tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish, iqtisodiy o‘rishga hissa qo‘shish hamda mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli dastur va strategiyalar ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlar global miqyosda turizm siyosatini shakllantirish, xalqaro standartlarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, shuningdek, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari suradi.

Dissertatsiyaning **“Global turizm tendentsiyalari va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bandligini ta’minlashning tahlili, hududlarda turizm sohasi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish holati hamda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlil etilgan .

Tadqiqot davomida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali rivojlantirishni asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi, jozibadorligi targib qiluvchi **“Smart tourism family entrepreneurship system”** innovatsion modeli va investorlar tomonidan real daromad va xarajat rejimini kuzatish imkoniyati, turpaketlarning reklamasini faollashtiradigan, risk nuqlarini $X.....-1<0<+1$ gacha kamaytiadigan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalshda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.



5-rasm. “SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM” - modelining tuzilishi¹⁸

“SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM” modeli turizm sohasidagi oilaviy tadbirkorlikni raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish

¹⁸ Muallif ishlanmasi

va barcha manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali hududlarning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada oilaviy bizneslarning daromadliligi, xizmat sifati va xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi ortadi.

Tadqiqotlar natijasida "SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" modelining asosiy vazifasi turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv mexanizmlari asosida rivojlantirishdan iborat. Ushbu model quyidagi vazifalarni bajarashi aniqlandi. Ular quyidagilar:


- Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- Raqamli texnologiyalar orqali turistik xizmatlarning sifati va samaradorligini yaxshilash;
- Mahalliy turistik resurslar va destinatsiyalar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta'minlash;
- Oilaviy bizneslarning ichki va xalqaro turizm bozorlariga integratsiyalashuvini kuchaytirish;
- Turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi xizmat turlarini joriy etish;
- Aholining bandligi va daromadlarini oshirishga ko'maklashish;
- Turizm sohasida innovatsion marketing va boshqaruv usullarini keng qo'llash;
- Barqaror turizm rivojlanishini ta'minlash hamda madaniy va tabiiy merosni asrashga xizmat qilish.

Hisob-kitoblarimizga ko'ra model turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish, hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" modelining sinergetik samaradorligini tarkibiy elementlari – oilaviy tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, turistik infratuzilma, marketing tizimi, davlat qo'llab-quvvatlashi va mahalliy resurslarning o'zaro uyg'un hamkorligi natijasida alohida qismlar samarasi yig'indisidan yuqori bo'lgan qo'shimcha natija yaratishida namoyon bo'ladi. Mazkur modelda raqamli texnologiyalarning oilaviy biznes faoliyatiga integratsiyalashuvi xizmatlar sifatini oshiradi, marketing xarajatlarini kamaytiradi va turistlar oqimini ko'paytiradi. Shu bilan birga, turistik xizmatlar, transport, joylashtirish, gastronomiya va hunarmandchilik faoliyatlarining yagona tizimda ishlashi qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi. Modelning sinergetik samarasi quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi degan yechimga keldik – oilaviy tadbirkorlik subyektlari daromadlarining oshishi, turistik xizmatlar hajmi va sifati yaxshilanishi, hududlarda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy aholi bandligi va turmush darajasining oshishi, turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligi kuchayishi, investitsiyalar va turistlar oqimining ko'payishi, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarning uyg'unlashuvi. Shunday qilib, modelning sinergetik samaradorligi barcha ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi natijasida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlab, hududiy iqtisodiy o'sish

va aholi farovonligining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa tizimning umumiy samaradorligini alohida elementlar samaradorligi yig'indisidan yuqori darajaga olib chiqadi.

“**Smart tourism family entrepreneurship system**” modelini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – turizm sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ulardan tizimli ravishda foydalanish imkoniyatlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu model respublikadagi turizm faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarni real vaqt rejimida yetkazib berish imkonini yaratadigan “**Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasi**” investitsion platformasini ishga tushirish uchun muhim ilmiy va texnologik asos bo'lib xizmat qiladi.



6-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasi¹⁹

Platforma turizm sektoridagi jarayonlarni kompleks tahlil qilish va samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Uning asosiy funksiyalaridan biri – turizm obyektlariga tashrif buyuruvchilar oqimi, ularning tashrif maqsadi, geografik kelib chiqishi, safar davomiyligi va xarajatlari kabi

¹⁹ Muallif ishlanmasi


muhim ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishdan iborat. Ushbu jarayon turizm bozorining aniq prognozlarini ishlab chiqish, sayyohlik talab va taklif muvozanatini ta'minlash hamda turizm infratuzilmasini samarali rejalashtirishga yordam beradi.

Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasi – bu investorlar, oilaviy biznes egalari va turistlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi zamonaviy mexanizmdir. Quyida ushbu platformaning mohiyati va asosiy afzalliklari tushuntirib berdik.

Investitsion platforma – bu oilaviy tadbirkorlik loyihalarini (mehmon uyi, milliy oshxona, hunarmandchilik), investorlar bilan bog'laydigan moliyalashtirish, boshqaruv va monitoringni ta'minlaydigan raqamli tizimdir.

7-rasm bo'yicha turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun **investitsion platformasining ishlash mexanizmi quyidagicha:**

Birinchidan – turizm sohasida faoliyat yurituvchi oilaviy tadbirkor vakili biznes loyihasini platformaga joylaydi (Samarqand viloyatidagi Tersak qishlog'idan);



7-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integrasiyalashgan raqamli resurs platformasini mexanizmi²⁰

Ikkinchidan – turizm sohasida faoliyat yurituvchi oilaviy tadbirkor vakilining biznes loyihasi bilan **investorlar tanishadi va** biznes-reja, kutilayotgan daromad, risk darajasi haqida xulosasini beradi ;

Uchinchidan – investor tomonidan – turizm sohasida faoliyat yurituvchi oilaviy tadbirkor subyektini **moliyalashtirish amalga oshiriladi** to'liq yoki ulushli (crowdfunding) sxemasida ;

To'rtinchidan – investor tomonidan **platforma mablag' sarfi va loyiha rivoji borasida monitoring qilinadi** ;

Beshindan – investor va tadbirkor o'rtasida **daromad taqsimlanadi** .

²⁰ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot davomida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integratsiyalashgan raqamli resurs platformasi afzalliklari aniqlandi va ular quyidagilar:

1. Moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi – turizm sohasida oilaviy tadbirkorlar kredit olmasdan investor topadi, Startap loyihalar tez ishga tushadi

2. Hududlarda turizm xizmatlarini rivojlanishini jadallashtiradi – qishloq joylarda yangi mehmon uylari va turistik xizmat turlari shakllanadi, sayyohlar uchun tanlov ko‘payadi.

3. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi – kichik bizneslar faoliyati ko‘yadi va aholi bandligi oshadi.

4. Turizm sohasini investitsiyalashda suniy to‘siqlar o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘ladi – investorlar real daromad va xarajat muhitini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, investitsiyalar ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash mexanizmi rejimga o‘tadi, risk nuqlarini $X \dots -1 < 0 < +1$ gacha kamaytiadi.

5. Tavakkalchilik risklari kamayadi – reyting va tahlil tizimi uchun ingrastrukturaviy muhit shakllanadi, platforma biznes loyihalarni baholash elementlari shakllanadi.

6. Turizm marketingi takomillashadi – yani turpaketlarning reklamasi kuchayadi va turistlar uchun axborotlar tez yetib boradi.

7. Innovatsiyalarga nisbatan moyillik ortadi – IT texnologilar jarayonga jalb etish kuchyadi, onlayn bron va to‘lov tizimi, mobil ilova orqali boshqaruv takomillashadi.

Mamlakatda turizm xizmatlari sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan yana biri – turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik soni hisoblanadi. Chunki oilaviy tadbirkorlik sohaning holati va samaradorlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir qiluvchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli tadqiqotlar davomida O‘zbekiston turizm xizmatlari sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi, turizm xizmatlari eksporti, mehmonxonalar soni, kiruvchi turistlar soni mehnat bozoridagi o‘rnini hamda sohadagi bandlik ko‘rsatkichlarini baholashni maqsadga muvofiq deb topdik (3-jadval).

Dissertatsiyaning **“Innovasion iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish istiqbollari va prognozlashtirish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali foydalanishga qaratilgan turlarini tashkil etish borasida tavsiyalar, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning prognozlashtirish istiqbollari ishlab chiqarilgan.

“MICE” (маъноси) O‘zbekiston turizm sektorida mavsumiylik omilini hal etishning istiqbolli yo‘lanishlaridan biri ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelish mumkin. Bunda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yangi bosqichga olib chiqish, tashqi bozorda milliy turizmning ijobiy imidjini shakllantirish, hududlarda turizm infratuzilma ob‘ektlariga faol investitsiyalarni jalb qilish sohaga mas‘ul vakolatli davlat organlari, mahalliy hokimliklar va nodavlat tashkilotlarining zimmasiga qo‘shimcha ma‘uliyat yuklaydi. Shu boisdan, biz O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik “MICE turizmi”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqdik (8-rasm).

Tirizm sohasida “MICE” oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi



8-rasm. Tirizm sohasida oilaviy tadbirkorlik “MICE turizmi”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ²¹

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorij davlatlaridan yanada ko‘proq sayyohlarni jalb qilish, respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish, mamlakatning turistlar oqimini yanada ko‘paytirish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish asosida turizm sohasi subyektlari (turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari)ning turizm mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro nufuzli turistik va marketing platformalar bilan integratsiyalovchi tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik “MICE turizmi” ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan;

Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni “MICE turizmi”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mamlakatda turizm sohasidagi mavsumiylik muammosini hal qilish va bu orqali bandlik darajasini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Unda bu vazifalarni bajarish uchun muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalariga ega bo‘lgan davlat markaziy rol o‘ynaydi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm esa zarur kuch va vositalarni taqdim etadi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yagona tizim sifatidagi muvofiqlashtiruvchi imkoniyatlari uning turizmdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, O‘zbekiston sharoitida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mamlakat mehnat bozorida band bo‘lgan aholi tarkibida turizmning hissasini oshirish va sohada yangi ish o‘rinlarini muntazam yaratishning eng muhim shartlaridan biri sohadagi kadrlar qo‘nimsizligiga barham berish va mavsumiylik masalasini hal qilishdir. Ushbu o‘ta muhim va dolzarb muammoni hal qilishning eng samarali yo‘llaridan biri – bu mamlakatda mavsumiylikka bog‘liq bo‘lmagan turizm shakllaridan oilaviy tadbirkorlik “MICE turizmi”ni jadal rivojlantirish va uni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish zarurligi tadqiqot davomida asoslandi.

Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “O‘rta Tersak”, “Tersak” qishloqlaridagi oilaviy tadbirkorlik obyektlarida malakali portelarni turxizmat ko‘rsatuvchi majmualari, oilaviy umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yaratish asosida yangi turistik keytiring xizmatlari joriy etish orqali turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar asoslab berildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahonning taraqqiy qilgan davlatlari qatoridan o‘rin egalladi. Jahon xalqlarining O‘zbekistonga, uning insoniyat tamadduni bo‘lgan qadimiy shaharlarini ko‘rishga, bu yerda yashovchi xalqlarning yashash tarzi, milliy-ma‘naviy qadriyatlari, urf-odatlar bilan tanishishga, tabiatining so‘lim joylarida orom olishga qiziqishi tobora kuchayib bormoqda. Shu bois yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni tobora ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish, salohiyatini oshirish uchun zarur chora tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Masalaning o‘ta dolzarbligidan kelib chiqib, yurtimizda soha rivojiga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilinmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Yurtimizda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, sayohat turizmlari tashkil qilish, sayohatchilarning dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar shular jumlasidandir. Yurtimizda bu sohada salmoqli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hali sohani yanada rivojlantirish, mukammallashtirish uchun qilinadigan ishlar ko‘lami keng. Bu sohada turistlarga

zamonaviy talablar darajasida xizmat ko'rsatish, ekoturistik maskanlarni shu talablar darajasida tayyorlash, gid, transport xizmatini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar ham talaygina.

Quyidagi 4- jadvalda marshrutda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan xizmat turlari sharoitlar keltirilgan.

4-jadval

Marshrutdagi turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik tomonidan ko'rsatiladigan turxizmatlarning xillari va sharoitlari

№	Marshrutdagi xizmatlarning xillari	Xizmat ko'rsatish sharoitlari
1	Transport xizmatlari	Transport vositalari (poyezd, avtomobil, avtobus, samolyot, mahalliy transport turlari), yo'lda yurish qoidalari, chegaralangan tezlik, transportda yurishdagi hayot xavfsizligi, to'xtashdagi talablar, transportdagi o'rinlar, ko'chma dam olish transport vositalari, transport va ekologik omillarni nazarda tutish.
2	Joylashtirish xizmatlari	Joylashtirish vositalari (mehmonxona, turistlar bazasi, turistlar lageri, kemping, ijara uylari, ochiq ekspeditsiya ko'rpalarida, havoda uxlash palatkada)ning manzillari, darajalari, sharoitlari, xizmatlar ko'rsatishning darajalari, ekologik omillarni nazarda tutish.
3	Ovqatlantirish xizmatlari	Ovqatlantirish korxonalarining xillari (restoran, kafe, oshxona, choyxona, bar, manzillari, darajalari, xizmatlar qilish davri, vaqti (nonushta, tushlik, kechki ovqat), ovqatlantirish xillari (shved stoli, to'liq pansion, yarim pansion, maxsus ovqatlar, alya kart, tablgot, palatka usuli, ekspeditsiya usuli,) ekologik omillarni nazarda tutish.
4	Ekskursiya xizmatlari	Ekskursiyalarning soni, mavzulari, mazmuni o'tkazish shakli (piyoda, transportda, o'tkazish ketma-ketligi) ekskursiyada dam olish, ovqatlantirish masalalari, ekologik omillarni nazarda tutish.
5	Turistik marshrutning hujjatlari	Marshrutning mavzusi, mazmuni, texnologiya xaritasi, marshrutdagi axborotlar, marshrut qatnashchilariga ko'rsatmalar, marshrut sxemasi, marshrutni amalga oshirish uchun ruxsatnoma, xizmatlarni amalga oshiruvchilar, (haydovchi va uning yordamchisi, tarjimon, suv, choy beruvchilar, oshpazlar, yuk tashuvchilar, axborotchilar, boshlovchilar va boshq.) haqida hujjatlar. Marshrut haqida hisobot hujjatlari

Viloyatda tashkil qilingan turizm asosan sayyohlarning talab va istagiga qarab rejalashtiriladi. Bunday oilaviy tadbirkorlik tomonidan ko'rsatiladigan turxizmatlarning quyidagilar kiradi:

Urgut tumanidagi "Omonqo'ton", "Qoratepa", "Yuqori Tersak", "Tersak", "O'rta Tersak" kabi turistik maskanlar joylashgan tabiat qo'ynida dam olish;

Viloyat Urgut tumanidagi turistik maskanlari hududidagi suv omborlari, daryo qirg'og'ida dam olish;

Urgut, tumanidagi turistik maskanlar hududidagi "Omonqo'ton", "Qoratepa", "Yuqori Tersak", "Tersak", "O'rta Tersak" kabi tog'li joylarda dam olish;

Ov, baliq ovi va boshqalar.

Mavsumiylikni inobatga olgan holda biz mashrutlarni quyidagi obyektlarda belgiladik.

**“Samarqand-Urgut” turism sohasida oilaviy tadbirkorlik turxizmatlar
marshrutini sayohat tarkibi²²**

№	Ko'rsatkichlar	Izohlar	
1	Marshrutning yil davomida davomiylik muddati	7 oy	
2	Marshrut turi	Ekoturizm	
3	Marshrut masofasi	136 km	
4	Marshrut harakatlanishi	Transportda	Marshrut turi bo'yicha
		Piyoda	20 km
5	Marshrutdagi turistlar soni	12 ta	
6	Marshrut sayohat obyektlari	Ming archa	
		Qoratepa	
		Yuqori va O'rta Tersak	
		Tersak	
		Omonqo'ton	
7	Marshrutda sayohat davomiyligi	4 kun	

Yuqoridagi jadvalda 4 kunga mo'ljallangan ekoturizm marshrutlari tarkibi, obyektlari keltirilgan. Bu oilaviy tadbirkorlik turxizmatlar marshrutida 1 kishiga sayohat to'lovi sayohatchining to'lovi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Marshrutlar bo'yicha 1 kishining sayohat to'lovi²³

№	Xarajat turlari	Qiymati (so'm)	Xarajatlar ulushi (%)
1	Ovqatlanish xarajatlari	240000	30,39
2	Sayohat obyektiga umumiy to'lov	320000	40,52
3	Transport xarajatlari	47975	6,07
4	Sayohat yo'l boshchisi (mutaxassis) to'lovi	50000	6,33
5	Tur firma to'lovi	131595	16,66
	Jami:	789570	100

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, marshrutda 1 kishi uchun to'lov 789570 so'mni tashkil etadi. Bu to'lovning tarkibida ovqatlanish 30,39 %, sayohat obyektiga umumiy to'lov 40,52%, transport xarajatlari 6,07 %, sayohat yo'l boshchisi (mutaxassis) to'lovi 7,55%, tur firma to'lovi 16,6 % ni tashkil etgan.

Birinchi kun Samarqand viloyati Urgut tumanida joylashgan Ming archa ekoturizm maskaniga olib kelinadi. Bu yerda ko'plab archazorlarni, maxsus tashkil etilgan zooparkni tomosha qilishi, archa qo'shib pishirilgan taomlarni iste'mol qilishlari mumkin.

Ikkinchi kun Qoratepa oilaviy mehmonxonalar turizm maskaniga olib kelinadi. Dam olish joyida sayohatchilar baliq ovlashlari, chiroyli manzaralarni tomosha qilishlari, baliqlarni o'zlari pishirib iste'mol qilishlari mumkin.

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

²³ Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Uchunchi kun Tersak turistik majmuaga olib kelinadi. Bu yerda turistik oilaviy turistik majmuasidagi turxizmatlar bilan tanishiladi . Bundan tashqari, qishloq aholisi hayoti, madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishtiriladi.

To‘rtinchi kun Urgut tumaning eng katta Omonqo‘ton oilaviy turistik turizm maskani bilan tanishtiriladi. Bu yerning ovqatlanish, oilaviy dam olish , tabiati, tog‘li va adirli manzaralari, suvli hududlari, oilaviy sport musobaqasi uchun mo‘ljallangan stadionlarini tomosha qilishlari va foydalanishlari mumkin.

Mamlakatimizda turizm sohasiga oid ma’lumotlar qayd etilayotgan bo‘lsa-da, ayrim ma’lumotlarni topish yoki ularni aniq vaqt rejimida yangilash va kuzatish jarayoni hali ham murakkabligicha qolmoqda. Shu bois, turizm sohasini rivojlantirishda real vaqtda statistik ma’lumotlarni olish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turizm sektorida strategik qarorlarni samarali qabul qilish uchun ishonchli va dolzarb ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ma’lumotlar sohaning barqaror rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil ma’lumotlaridan foydalanib, ekonometrik modelning ko‘rinishini quyidagi ko‘rinishda ifoda etildi:

$$Y = -4963,8 + 34,209 \cdot X_2 - 0,6908 \cdot X_4 + 0,0029 \cdot X_8 + 19,88 \cdot X_9 \quad (1)$$

Ushbu ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o‘shishini quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o‘shishiga 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi;

2. Ushbu prognoz ko‘rsatkichlarini natijalarni ixtiyoriy davrda o‘zgartirish natijasida ham aniqlash mumkin bo‘ladi;

3. Ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari orqali operativ hamda strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi;

4. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o‘shishini 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish biznigcha birinchidan – turizm bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atiga o‘z ulushini qo‘shadi, ikkinchidan – turizm xizmatlar bozorida raqobatbardosh xizmatlarning taklif hajmini yildan-yilga o‘shib borayotganligini ko‘rsatadi va uni miqdor jihatdan amplitudasini aniqlab beradi, uchinchidan turizm sohasida aholi bandligi borasida yangi ish o‘rilarini tashkil etish uchun imkoniyat yaratilayotganligini ko‘rsatadi .

7-jadval

Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o‘shishining 2030-yilga prognozi

Yillar	Y(x)	X ₂	X ₄	X ₈	X ₉
2026	25400	854	794152,1	4754113,1	605214,1
2027	26520	902	865621,1	5689230,1	690563,2
2028	27563	1023	972354,1	6596214,2	780236,4
2029	28410	1130	1023560,2	7620369,1	869301,2
2030	29630	1285	1123569,2	8963010,5	965323,1

Yuqorida ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi orqali turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o‘shishini prognoz qilish uchun omillarning o‘zgarish darajasi


kerak bo'ladi. Shu boisdan modelga kiritilgan to'rtta omildan bittasi bilan bog'liq ushbu omillarning natijalaridan hamda ishlab chiqilgan regressiya tenglamasidan foydalangan holda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o'sishini 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (8-jadval).

8-jadval

Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o'sishining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2026	2027	2028	2029	2030
Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o'sishi (Y), birlik	25400	26520	27563	28410	29630

Prognoz ko'rsatkichlaridan ko'rish mumkinki hududlarda **turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o'sishining** yuqorida modelga kiritilgan to'rtta omilning o'rtacha o'zgarish darajasi saqlab qolinganda 2030-yilga O'zbekiston hududlari bo'yicha 29630 taga yetkazish mumkin (9-rasm).



9-rasm. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonini o'sishining 2030-yilgacha prognozi

O'zbekistonda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonining hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Hisob kitoblar natijalariga ko'ra, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni soni 2026-2030 yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib, sohada 2026-yilda 25400 tani tashkil etadigan bo'lsa 2030-yilga borib 2026-yildagidan 4230 taga oshishi yani 29630 tani tashkil etishini ko'rsatdi.

XULOSA

Dissertasiya ishini bajarish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosa va takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga mo'ljallangan mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va undan kelib chiqadigan vazifalar doirasida turizmni jadal rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirish ustun strategik vazifa sifatida belgilangan va bu borada bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Ishda ana shu strategik vazifani bajarishda innovatsiyalarni rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi ko'rsatib berildi.

2. Hududlarda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish zaruratining ilmiy va amaliy jihatlari, turizm, oila va tadbirkorlikning innovatsion iqtisodiyot tizimiga asoslangan "oilaviy tadbirkorlik" kategoriyasining takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik faoliyati modeli, o'ziga xos xususiyatlari, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish tizimining tamoyillari, vositalari va tarkibiy elementlari ishlab chiqildi.

3. UN Tourism yondashuviga ko'ra, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy talablari mahalliy aholini keng jalb etish, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, barqarorlik tamoyillariga rioya qilish, qishloq turizmini rivojlantirish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish hamda raqamlashtirishni kuchaytirishdan iborat. Ushbu talablar amalga oshirilsa, oilaviy tadbirkorlik turizmning samarali va barqaror o'sishiga xizmat qiladi degan natijani beradi.

4. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalangan mexanizmlarini imkoniyatlaridan kelib chiqib "raqamli platformalar" va "innovatsion integratsiya" tamoyillari, raqamli texnologiyalardan foydalanishning $E > 1E > 1E > 1 \rightarrow$ texnologiyalar samarali (on-line bronlash va mobil application xavfsiz), $= 1E = 1E = 1 \rightarrow$ texnologiyalar xarajatlari teng (on-line mobil bronlash va application xavfga yaqin), $E < 1E < 1E < 1 \rightarrow$ (on-line bronlash va mobil application xavfli) texnologiyalar samarasiz ko'rsatkich koeffitsiyentining integral usuli bo'yicha takliflar asoslangan va "Omonqo'tan" qishlog'i turistik destinatsiyasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy aholi ish bilan band etish bo'yicha model ishlab chiqildi hamda oilaviy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga uslubiy yondashuvlarning institutsional jihatlari takomillashtirilgan.

5. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va samarali rivojlantirishni asosiy uslubiy yondashuvlar tasnifi, jozibadorligi targib qiluvchi "Smart tourism family entrepreneurship system" innovatsion modeli va investorlar tomonidan real daromad va xarajat rejimini kuzatish imkoniyati, turpaketlarning reklamasini faollashtiradigan, risk nuqlarini $X \dots -1 < 0 < +1$ gacha kamaytiadigan turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni investitsiyalashda integratsiyalashgan raqamli resurs platformasi borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

6. Mamlakatning turistlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish asosida turizm sohasi subyektlari (turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik

sub'ektlari)ning turizm mahsulotlari va xizmatlarini xalqaro nufuzli turistik va marketing platformalar bilan integratsiyalovchi oilaviy tadbirkorlikni "MICE turizmi"ni rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etildi ;

7. Turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni "MICE turizmi"ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mamlakatda turizm sohasidagi mavsumiylik muammosini hal qilish va bu orqali bandlik darajasini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Unda bu vazifalarni bajarish uchun muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalariga ega bo'lgan davlat markaziy rol o'ynaydi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm esa zarur kuch va vositalarni taqdim etadi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yagona tizim sifatidagi muvofiqlashtiruvchi imkoniyatlari uning turizmdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

8. Turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish dastur maqsadidan kelib chiqib "Omonqo'ton", "Qoratepa", "Yuqori Tersak", "O'rta Tersak", "Tersak" qishloqlaridagi oilaviy tadbirkorlik obyektlarida malakali portelarni turxizmat ko'r satuvchi majmualari, oilaviy umumiy ovqatlanish shaxobchalarini yaratish asosida yangi turistik keytiring xizmatlari joriy etish orqali turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar asoslab berilgan.

9. Turizm sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ulardan tizimli ravishda foydalanish imkoniyatlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu platforma respublikadagi turizm faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarni real vaqt rejimida yetkazib berish imkonini yaratadigan "Smart tourism family entrepreneurship system" innovatsion platformasini ishga tushirish botasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

10. "SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" modeli ishlab chiqildi. Modelning sinergetik samaradorligini tarkibiy elementlari – oilaviy tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, turistik infratuzilma, marketing tizimi, davlat qo'llab-quvvatlashi va mahalliy resurslarning o'zaro uyg'un hamkorligi natijasida alohida qismlar samarasi yig'indisidan yuqori bo'lgan qo'shimcha natija yaratishida iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo'lishi aniqlandi . Mazkur modelda raqamli texnologiyalarning oilaviy biznes faoliyatiga integratsiyalashuvi xizmatlar sifatini oshiradi, marketing xarajatlarini kamaytiradi va turistlar oqimini ko'paytiradi degan xulosaga kelindi . Shu bilan birga, turistik xizmatlar, transport, joylashtirish, gastronomiya va hunarmandchilik faoliyatlarining yagona tizimda ishlashi qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi.

11. Modelning sinergetik samarasi quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi degan yechimga kelindi – oilaviy tadbirkorlik subyektlari daromadlarining oshishi, turistik xizmatlar hajmi va sifati yaxshilanishi, hududlarda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy aholi bandligi va turmush darajasining oshishi ,turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligi kuchayishi,investitsiyalar va turistlar oqimining ko'payishi, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarning uyg'unlashuvi.

12. O'zbekistonda turizm sohasida oilaviy tadbirkorlik sonining hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Hisob kitoblar natijalariga ko'ra, turizm sohasida oilaviy tadbirkorlikni soni 2026-2030 yillarda

jadval sur'atlar bilan rivojlanib, sohada 2026- yilda 25400 tani tashkil etadigan bo'lsa 2030 yilga borib 2026-yildagidan 4230 taga oshishi yani 29630 tani tashkil etishini ko'rsatdi.

13. Oilaviy tadbirkorlik subyektlari turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar orqali daromad tushumlarining bir qismini bevosita shakllantiradi. Bu esa to'lov balansining xizmatlar bo'limini yaxshilashga xizmat qiladi. Turizm resurslari faqat yirik shaharlarda emas, balki qishloq va tog'li hududlarda ham mavjud. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi investitsiyalar va daromadlarning hududlar bo'ylab tengroq taqsimlanishiga yordam beradi hamda regional tafovutlarni qisqartiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

ПАРДАЕВА ОЗОДА МАМАЮНУСОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ
ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при академии Наук Республики Узбекистан за номером В 2026.2.DSc/Iqt1316.

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия “Шелковый путь”.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.univ-silkroad.uz) и на Информационно-научном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Официальные оппоненты:

Тухлиев Нурислом

академик Академии наук Республики Узбекистан, доктор экономических наук, профессор

Мансурова Наргиза Шамсидиновна

доктор экономических наук (DSc), профессор

Каримова Азиза Мухаммадризаевна

доктор экономических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 10 октября 2026 года в 13-30 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней при Международном университете туризма и культурного наследия «Шёлковый путь» за номером DSc. 22/2025.27.12.1.01.0. Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 17. Тел: (998 90) 213-89-07; Факс:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Международного университета туризма и культурного наследия “Шелковый путь” (зарегистрирован под номером 55). Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, дом 17, Тел.: (99866) 240-67-68; Факс: (99866) 240-67-68, электронная почта: info@univ-silkroad.uz.

Автореферат диссертации разослан 28 сентября 2026 года.
(реестр протокола рассылки №13 от 28 сентября 2026 года.).

А.А.Эштаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Х.И.Турдибеков

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.э.н., доцент

Б.Ш. Сафаров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях инновационной экономики развитие семейного предпринимательства в сфере туризма становится одним из важнейших направлений обеспечения занятости населения, диверсификации источников доходов, эффективного использования местных ресурсов и повышения туристической привлекательности территорий. По данным UN Tourism, «в 2025 году количество международных туристов достигло около 1,52 млрд человек, а общий объём экспортных доходов от международного туризма составил 2,2 трлн долларов США»²⁴. В этой связи эффективное использование цифровых платформ, систем онлайн-бронирования, мобильных приложений, электронных платежей, инновационных маркетинговых технологий и интегрированных туристских услуг способствует повышению конкурентоспособности субъектов семейного предпринимательства, их эффективной интеграции в цепочки создания стоимости в сфере туризма, а также расширению возможностей выхода на новые сегменты рынка.

В этой связи, исходя из требований инновационной экономики, особую научно-практическую значимость приобретает совершенствование теоретических и методологических основ развития семейного предпринимательства в сфере туризма, системная оценка факторов, оказывающих влияние на его развитие, разработка организационно-экономических механизмов, основанных на использовании цифровых платформ и принципов инновационной интеграции, а также совершенствование методологии устойчивого развития семейного туристского бизнеса с учётом региональных особенностей.

В мировой практике в условиях инновационной экономики проводятся широкомасштабные научные исследования, посвящённые совершенствованию методологии развития семейного предпринимательства в сфере туризма, обеспечению устойчивого развития туристских услуг, повышению конкурентоспособности и инновационной активности субъектов семейного предпринимательства, а также их эффективной интеграции в современный туристский рынок. В данном направлении особое внимание уделяется совершенствованию концептуально-методологических основ развития семейного предпринимательства в сфере туризма, эффективному использованию инновационных инструментов управления, внедрению в деятельность субъектов семейного предпринимательства цифровых платформ, технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных, выявлению новых сегментов туристского спроса и формированию соответствующих им инновационных видов туристских услуг, совершенствованию механизмов интеграции семейного предпринимательства в туристские дестинации, кластеры и цепочки создания стоимости, диверсификации туристских услуг и их продвижению на рынок с

²⁴ UN-Tourism. Jahon turizm barometri. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

использованием инструментов цифрового маркетинга, разработке методов оценки инвестиционного и инновационного потенциала, а также развитию интегрированных форм и моделей семейного предпринимательства, способствующих устойчивому социально-экономическому развитию туризма.

В Новом Узбекистане в условиях инновационной экономики последовательно реализуются целевые программы и комплексные меры, направленные на ускоренное развитие семейного предпринимательства в сфере туризма, повышение его экономической эффективности и конкурентоспособности, широкое внедрение современных инновационных технологий, а также рациональное использование туристского потенциала регионов. Как отметил Президент Республики Узбекистан: «Если вложить средства в домохозяйства, обеспечить их необходимым оборудованием и научить рационально работать, люди смогут самостоятельно обеспечивать себя. Уже через год вложенные средства окупятся в двойном размере. Именно таким должен быть экономический механизм»²⁵. Кроме того, было подчеркнуто: «Мы стремимся создать благоприятные условия для туристов, однако необходимо также правильно сформировать основу этой работы. В соответствии с мастер-планом следует сформировать “коридоры развития”, охватывающие образование и инновации, туризм и торговлю, культурное наследие, бизнес и ИТ-услуги»²⁶. Реализация указанных задач обуславливает необходимость совершенствования теоретико-методических и методологических основ развития семейного предпринимательства в сфере туризма, проведения системной оценки организационно-экономических, институциональных, инновационных и региональных факторов, влияющих на его развитие, совершенствования механизмов интеграции субъектов семейного предпринимательства в туристские дестинации, кластеры и цепочки создания стоимости, выявления новых сегментов туристского спроса на основе цифровых платформ, технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных, диверсификации услуг семейных гостевых домов, гастрономического, аграрного, экологического, этнического и креативного туризма, эффективного использования инновационных инструментов управления, повышения инвестиционной и инновационной активности субъектов семейного предпринимательства, совершенствования механизмов их финансовой, инфраструктурной и институциональной государственной поддержки, а также проведения фундаментальных научных исследований по прогнозированию перспективных параметров развития семейного предпринимательства в сфере туризма на основе интегральной оценки и эконометрических моделей.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу, в том числе в Указах Президента Республики

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-maydagi “Har bir oila tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi kerak. <https://president.uz/oz/lists/view/1734>

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-fevraldagi “Xizmat sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi”/ <https://president.uz/oz/lists/view/8875>

